XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-135-7-99-K/25 Nurobod tumani

Nurobod tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-moddasi, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/01.2-38/3950-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Nurobod tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari 122 525,5 mln.so‘m va xarajatlari esa 122 525,5 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Nurobod tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 071,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Nurobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari miqdori 1-ilovaga muvofiq hamda Nurobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning 2026-yil uchun cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 736,7 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Nurobod tumanidagi qishloq xo‘jaligiga uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdor 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

Nurobod tumanidagi jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Ibragimov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Musurmanov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (M.Erkinov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BURANOV MAXSUD ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-135-7-99-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Nurobod tumani mahalliy budjeti daromadlarning 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

(ming.so‘mda)

№	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**122 525 535**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 297 980
2	Foyda solig‘i	704 490
3	Aylanmadan olinadigan soliq	4 190 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	38 239 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	577 000
6	Aksis solig‘i jami	5 748 500
	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchilar realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksis solig‘i	*5 748 500*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 210 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 660 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 920 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 249 265
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	26 399 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 190 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*1 346 000*
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-538 400*
13	Davlat boji	460 000
14	Yig‘im	309 400
15	Jarimalar	853 300
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	56 000

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-135-7-99-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Nurobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning 2026-yil uchun cheklangan miqdori

(ming.so‘mda)

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**122 525 535**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	42 805 668
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*4 882 200*
3	Madaniyat bo‘limi	5 342 498
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 240 701
5	Sport bo‘limi	7 698 880
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 776 676
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 164 081
8	Irrigatsiya bo‘limi	265 000
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 985 666
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	224 073
10	Hokimiyat	34 976 048
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 654 106*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 042 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 736 752*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 441 179
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*144 148*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 297 031*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 605 065
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Nurobod
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-135-7-99-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Nurobod tumanidagi qishloq xo‘jaligiga uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdor 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Nurafshon MFY	0,85	29 940 400
2	Sarikul MFY	0,90	31 701 600
3	Nurbuloq MFY	1,64	57 767 360
4	Nurdum MFY	0,85	29 940 400
5	Pulatchi MFY	1,64	57 767 360
6	Sazag‘an MFY	1,64	57 767 360
7	Saroy MFY	1,64	57 767 360
8	Sahoba MFY	0,84	29 588 160
9	Chortut MFY	0,90	31 701 600
10	Tepakul MFY	1,64	57 767 360
11	Ulus MFY	1,64	57 767 360
12	Xalqabod MFY	1,60	56 358 400
13	Chorvador MFY	0,85	29 940 400
14	Sharq yulduzi MFY	1,78	62 698 720
15	Yuksalish MFY	1,60	56 358 400
16	Navruz MFY	1,78	62 698 720
17	Tegirmonboshi MFY	0,85	29 940 400
18	Navbaxor MFY	0,85	29 940 400
19	O‘rtabo‘z MFY	0,85	29 940 400
20	Mash’al MFY	1,64	57 767 360
21	Ag‘ron MFY	0,85	29 940 400
22	Mehnatkash MFY	0,95	33 462 800
23	Olg‘a MFY	0,90	31 701 600

24	Oltinsoy MFY	1,09	38 394 160
25	Omondora MFY	0,90	31 701 600
26	Amir Temur MFY	1,78	62 698 720
27	Arabota MFY	0,85	29 940 400
28	Boshquduq MFY	0,96	33 815 040
29	Buloqboshi MFY	0,85	29 940 400
30	Oqsoy MFY	0,95	33 462 800
31	Girdiqo‘rg‘on MFY	0,85	29 940 400
32	Do‘stlik MFY	0,90	31 701 600
33	Jarquduq MFY	0,90	31 701 600
34	Jom MFY	0,90	31 701 600
35	Ittifoq MFY	0,90	31 701 600
36	Qilichli MFY	1,64	57 767 360
37	Qurg‘oncha MFY	0,85	29 940 400
38	Bunyodkor MFY	0,85	29 940 400
39	Lolazor MFY	0,85	29 940 400

Xalq deputatlari Nurobod
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-135-7-99-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Nurobod tumanidagi jismoniy shaxslar bo‘yicha (dexqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Nurafshon MFY	0,89	271,97
2	Sarikul MFY	0,89	271,97
3	Nurbuloq MFY	1,27	388,09
4	Nurdum MFY	0,89	271,97
5	Pulatchi MFY	0,89	271,97
6	Sazag‘an MFY	0,89	271,97
7	Saroy MFY	0,89	271,97
8	Sahoba MFY	0,89	271,97
9	Chortut MFY	0,89	271,97
10	Tepakul MFY	0,89	271,97
11	Ulus MFY	1,14	348,36
12	Xalqabod MFY	1,14	348,36
13	Chorvador MFY	0,89	271,97
14	Sharq yulduzi MFY	1,27	388,09
15	Yuksalish MFY	1,14	348,36
16	Navruz MFY	1,27	388,09
17	Tegirmonboshi MFY	0,89	271,97
18	Navbaxor MFY	0,89	271,97
19	O‘rtabo‘z MFY	0,89	271,97
20	Mash’al MFY	0,89	271,97
21	Ag‘ron MFY	0,89	271,97
22	Mehnatkash MFY	0,89	271,97

23	Olg‘a MFY	0,89	271,97
24	Oltinsoy MFY	1,14	348,36
25	Omondora MFY	0,89	271,97
26	Amir Temur MFY	1,27	388,09
27	Arabota MFY	0,89	271,97
28	Boshquduq MFY	1,14	348,36
29	Buloqboshi MFY	0,89	271,97
30	Oqsoy MFY	0,89	271,97
31	Girdiqo‘rg‘on MFY	0,89	271,97
32	Do‘stlik MFY	0,89	271,97
33	Jarquduq MFY	0,89	271,97
34	Jom MFY	0,89	271,97
35	Ittifoq MFY	0,89	271,97
36	Qilichli MFY	0,89	271,97
37	Qurg‘oncha MFY	0,89	271,97
38	Bunyodkor MFY	0,89	271,97
39	Lolazor MFY	0,89	271,97